XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-18-143-7-104-K/25 Toyloq tumani

Toyloq tumanining 2025 yil IV chorak mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 127-moddasi va “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasiga muvofiq, xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-021-7-104-K/24-sonli qaroriga tegishli o‘zgartirish kiritish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining o‘n sakkizinchi sessiyasi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 1 259 383,0 ming (bir milliard ikki yuz ellik to‘qqiz million uch yuz sakson uch ming) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Toyloq tumani bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-021-7-104-K/24-sonli qarori 1-ilovasidagi 8-bandi

hamda 2-ilovasidagi 10-bandlari tuman mahalliy budjeti hisobidan Toyloq tumani mahalliy budjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlarini 1 259 383,0 ming (bir milliard ikki yuz ellik to‘qqiz million uch yuz sakson uch ming) so‘m 1-ilovaga muvofiq oshirilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (R.Qahorov) Toyloq tumani mahalliy budjetining 2025-yil IV chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Sidikov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Sharipov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **RAXMATULLAYEV BEHZOD RAXMATULLAYEVICH**

Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-18-143-7-104-K/25 -son qaroriga
1-ilova

a) Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-021-7-104-K/24-sonli qarori 1-ilovasidagi 8-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 911 000	1 259 383	25 170 383

b) Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-021-7-104-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 10-bandi “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	2 488 000	1 259 383	3 747 383